

**MATN MUALLIFI VA IJROCHISINING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI  
(YOSHI, JINSI, KASBI, MA'LUMOTI, TILNI BILISH DARAJASI VA  
BOSHQALAR) ANIQLASHGA QARATILGAN LINGVISTIK EKSPERTIZA**

**Eraliyeva Sarvinoz Oybek qizi**

Chirchiq davlat pedagogika universiteti gumanitar fanlar fakulteti  
o'zbek tili va adabiyot yo'nalishi 2-bosqich magistranti

[Sareraliyeva2@gmail.com](mailto:Sareraliyeva2@gmail.com)

Ilmiy rahbar: **Mengliyev B.R**

**ANNOTATSIYA**

*Ushbu maqola hujjat matnlarida matn muallifi va uning ijrochisini farqlash, shu ikki shaxsning individual xususiyatlarini matndan aniqlash usullari hamda ularni tahlil etib lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayonini o'z ichiga olgan. Matn muallifi va ijrochisining yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumoti, tilni bilish darajasi kabi bir qancha individual xususiyatlari hujjat matnida qay tarzda aks etganini yoritib berish tadqiqot ishining bosh maqsadi hisoblanadi.*

***Kalit so'zlar:** matn muallifi, matn ijrochisi, hujjat matni, qo'lyozma matn, hujjat matni irochisi identifikatorlari, diagnostika, lingvist-ekspert, lotin yozuvi, shaxsiy-individual xususiyatlar, frazeologik birlik.*

***Kirish***

Og'zaki taqdimot, qo'lda yozilgan yozuv yoki kompyuterda terilgan hujjatlarning har birida insonning nutqi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Matnning ijrochisi va muallifini aniqlash bo'yicha tadqiqotlar matn muallifligi shubha tug'dirganda, plagiat, anonim yoki psevd-anonim mualliflik, shuningdek, stilizatsiya va taqlid qilishda shubhalar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi. Tadqiqot obyekti to'g'ridan-to'g'ri yozma nutqning mazmuni va xarakterli xususiyatlari, uning qo'li bilan yozilgan yoki bosma nusxasida, qo'l yozuvi imtihonidan farqli o'laroq, obyekti grafik komponent hisoblanadi.

***Tahlil va natijalar***

Bilamizki, diagnostika so'zining ma'nosini "tanib olishga qodir" iborasi bilan ifodalash mumkin. Ushbu sohadagi mutaxassis muallif va hujjat matni ijrochisi jinsi, yoshi, ma'lumoti yoki ruhiy salomatligi kabi xususiyatlarini aniqlashi mumkin.

Tarjimai hol.

Ulen Haqqulov Ernaxar  
 Mirkomil ogli 1962-yil 16-senta-  
 brda Dargona viloyati Sox  
 tumani Rovot qishlog'ida tug'il-  
 ganman. Millatim tojik, O'zbekiston  
 fuqarolim. Dilaliman, 4 nafar  
 farzandim bor. Ishchimman  
 "Rovot fayzi" M Ch T da texnik  
 kodim sifatida faoliyat olib  
 boraman.

Lingvist-ekspert sifatida ushbu matndan quyidagilarni aniqladik:

— **Matni yozgan odamning jinsi va taxminiy yoshi** ijrochi nutqining xarakterli xususiyatlari bilan belgilanadi: harflar yozilishida jimjimadorlikka intilish kuzatiladi, bu holat hujjat matni gaplarini boshlab beruvchi 1-so'zning bosh harfi shakllarida yaqqol ko'ringan. Go'zallikka tashnalik va uni sevish ifodasi erkaklarga nisbatan his-tuyg'ularga beriluvchan ayollar nutqiga xos. Yana boshqa holat ham muhim ahamiyatga ega: harflar yozilishida bosma harflarga asoslanish kuzatilmaydi va hujjat matni yozma qonuniyatlar asosida ayollarga xos sabr bilan yozilgan. Demak matn ijrochisi ayol kishi bo'lgan deya olamiz.

— **Yoshning ta'rifi** matn ijrochisining matnda aniqlangan psixologik xususiyatlariga, shuningdek, ma'lum bir yosh guruhiga xos bo'lgan ba'zi leksemalardan foydalanishiga asoslangan: matn ijrochisi lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosidan foydalangan. Hozirgi kunda barcha rasmiy hujjatlar lotin yozuvida yozilishi shart bo'lsa-da yoshi katta odamlar hamon krill alifbosidan foydalanib kelishmoqda. Ushbu matn ijrochisi esa nutqni lotin yozuvida osonlikcha ifoda etgan. Bundan anglashiladiki, hujjat matni 35 yoshdan oshmagan shaxs tomonidan yozilgan.

— **Matn ijrochisi va muallifning ijtimoiy identifikatorlari**, ya'ni matn ijrochisi va muallifning madaniy rivojlanish darajasi, kasbiy xususiyatlari, aqlning rivojlanish ko'rsatkichi va boshqalarni quyidagicha aniqladik: hujjat matnidagi so'zlar zich joylashmagan. Yozuvda so'zlar bir-biriga yopishib, bo'yali ketmasligi va husnixatning chiroyli bo'lishi uchun tanlangan bu yo'l matn ijrochisining nozik did

egasi ekanligi hamda go‘zallik bo‘yicha ideallari yuqori darajada shakllanganidan darak beradi. Yozuvning satr boshidan boshlanib, oq varaqqa bir tekisda joylashtirilgani matn ijrochisining aniqlik va sifatni yoqtirishidan dalolat beradi. Matn muallifining esa bunday sifatlarini aniqlay olmaymiz, sababi hujjat uning yozma nutqida bayon etilmagan.

— **Matn ijrochisi va muallifning qay darajada ma‘lumotli ekanligini** va qaysi sohada ta‘lim olganligi, sohada oliy ma‘lumoti bor yoki yo‘qligini shunday izohlaymiz: matn ijrochisi oliy ma‘lumotga ega bo‘lishi mumkin, biroq ta‘lim sohasida ishlamaydi. Chunki “4 nafar” jumlasida u raqamni ifodalovchi so‘zni harflar yordamida emas son orqali ifodalagan. Matn muallifi esa hujjat mazmunidan anglashiladiki, o‘rta ma‘lumotga ega ishchi xodim.

— **Matn ijrochisi tomonidan yozuvda qasddan buzilishning o‘rnatilishi** mavjud: “sentabrda” so‘zini bo‘g‘inga ajratayotganda atayin xatolikka yo‘l qo‘yilgan. So‘z “sen-tabr” tarzida emas, “senta-br” shaklida ko‘chirilgan. Chunki agar biz matn ijrochisining aqliy salohiyatini to‘g‘ri baholayotgan bo‘lsak, uning bunday qo‘pol imloviy xatoga yo‘l qo‘yishi mumkin emas.

— **Matn yozish paytida matn ijrochisidagi ruhiy holatni** shunday tushuntirish mumkin: hujjat yozilayotgan paytda matn ijrochisining ruhiy holati bir me‘yorda bo‘lgan, ammo oq qog‘ozdagi matn qatorlari yo‘nalishi bir xilda emas. Boshlanishida matn qatorlaridagi yozuv tepaga qarab ketgan bo‘lsa, matn so‘ngidagi qator yozuvi biroz pastga og‘gan. Bu esa matn ijrochisining ayni paytdagi ruhiy holati biroz beqarorlashganini anglatadi. Ya‘ni ijrochi o‘zini yaxshi his etib ko‘tarinki ruhda yurishga harakat qilsa ham ma‘lum bir muammoli vaziyatlarda tushkinlikka tushib qolishi mumkin.

— **Hujjat ijrochisi ma‘lum yo‘nalishdagi matnlarni – ilmiy maqolalar, jurnalistik materiallar, ishbilarmonlik hujjatlari va boshqalarni yozish sohasida tajribaga ega** deb aytish mumkin, hujjat muallifida esa bu ko‘nikma mavjud emas: matn ijrochisi hujjat matnini hech bir g‘alizliksiz, to‘g‘ri tuzgan. Fikrlar ketma-ketligi aniq, kerakli so‘zlar tanlangan. Hujjat mazmunidan anglashilgan holatga tayansak, matn muallifining bunday qobiliyatga ega deb aytishimiz dushvor.

— **O‘rganilgan matn muallifining ma‘lum bir lahja yoki lahjani tashuvchiga tegishliligini** aniqlashda biz biror signal so‘zga duch kelmadik. Chunki hujjat mazmunida muallifning millati tojik va Farg‘ona viloyatidan ekanligi ko‘rinib turgan bo‘lsa-da matn ijrochisining millati o‘zbek, o‘zbek tili uning ona tilisi va adabiy til me‘yorlarini yaxshi biladi. Shuning uchun hujjat matnida ma‘lum lahja yoki shevaga xoslangan so‘zni uchratmaymiz.

— **Matn ijrochisi qaysi holatda bo‘lgan?** Normal yoki g‘ayrioddiy fiziologik holatda (alkogol yoki giyohvandlik holati, stress, jismoniy charchoq, kasallik va

boshqalar) ekanini ushbu omillarga qarab aniqladik: harflar shakllari bir xilda emas. Yozuv yuzaki qaraganda chiroyli xatda ifodalanganday taassurot uyg'otsa-da so'zlar shakli turlicha. Harflar yozilayotgan vaziyatda qo'l harakati bir tekisda bo'lmagan. Bundan shunday xulosaga kelish mumkinki, hujjat matni ijrochisi stress yoki ayollar fiziologiyasida uchraydigan ma'lum muddatni qamrab oluvchi jarayonni boshdan kechirmoqda.

Matnning ijrochisi va muallifini aniqlash bo'yicha diagnostik tadqiqotlar natijalariga ko'ra muallif va ijrochining o'ziga xos lingvistik, psixologik va ijtimoiy portretini yaratish mumkin. Shunga ko'ra biz ushbu hujjatdan ikki shaxsning individual xususiyatlarini aniqladik:

**1-shaxs: matn ijrochisi** ayol jinsidagi 30 yoshdan oshmagan, oliy ma'lumotli, raqamlar bilan ishlovchi (loyihachi, muhandis, iqtisodchi, yoki uy-joy kadastor xodimi) mutaxassis bo'lishi mumkin. So'z boyligi o'rtachadan yuqori, hissiyotlarga beriluvchan, jamiyatda, turmushda o'z o'rnini topishga harakat qilayotgan shaxs. Ruhiiy holatidan ma'lum bir o'tish davrini boshdan kechirayotganini anglash mumkin.

**2-shaxs: matn muallifi** hujjat mazmunidan ko'rinib turibdiki, erkak jinsidagi keksa yoshli, o'rta ma'lumotli, jismoniy mehnat orqali faoliyat olib boruvchi shaxs. Og'zaki so'zlashuv uslubidagina foydalanuvchi, rasmiy ish hujjatlari qay tarzda tuzilishidan bexabar. Uning so'z boyligini shevaga xoslangan leksemalar boyitib turganligi uchun tarjimayi hol matnini yozishda millati o'zbek bo'lgan tanishidan yordam so'ragan ko'rinadi. Bu holat bir tomondan uning shaxsiyatidagi o'ziga u qadar ishonmaslik xususiyatini ko'rsatsa, 2-tomondan bu ko'pchilik erkaklarga xos ustuvorlikka intilish boshqalarga ish buyurishni yoqtirish alomati bo'lishi mumkin.

### *Xulosa*

Hujjat ijrochisini yoki matn muallifini aniqlash yozma nutqda ta'kidlangan umumiy va alohida lisoniy xususiyatlarga muvofiq amalga oshiriladi. Umumiy lisoniy xususiyatlarga stilistik, leksiko-frazeologik, sintaktik, imlo va punktuatsiya xususiyatlari kiradi. Yozma nutqning o'ziga xos xususiyatlari doimiy (takrorlanadigan) nutqning buzilishi, shuningdek, ma'lum bir shaxsga xos individual leksik yoki grammatik ko'nikmalar sifatida tushuniladi.

Yuqoridagi hujjat matnini lingvistik eksperizadan o'tkazib matn ijrochisi va muallifning jinsi va taxminiy yoshi, ijtimoiy identifikatorlari, qay darajada ma'lumotli ekanligi, yozuvda qasddan buzilishning o'rnatilishi mavjudligi, matnni yozish paytida matn ijrochisidagi ruhiy holat, ma'lum yo'nalishdagi matnlarni – ilmiy maqolalar, jurnalistik materiallar, ishbilarmonlik hujjatlari va boshqalarni yozish sohasida tajribaga ega yoki yo'qligi, ma'lum bir lahja yoki lahjani tashuvchiga tegishlilik holatlarini aniqlashga erishdik.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. *Musulmonova K. O'zbek tili yozma matnlarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish jarayoni, bosqichlari, metodlari. PHD diss.*
2. *To'rayeva D. O'zbek tilidagi shaxsiy yozishmalarda noadabiy unsurlarning hududiy xoslanishi. PHD diss.*
3. *To'rayeva D. Nutqda shaxs ruhiy holatining namoyon bo'lishi. Mag...diss*